



TURIZM IQTISODIYOTI: O'ZBEKISTONNING MADANIY MEROSINING IQTISODIY AHAMIYATI

Xalmatjanov Farxod Maxamatjanovich

Alfraganus universiteti

Iqtisodiyot fakulteti katta o'qituvchisi

Abduraxmonov Shohruh Sherzod o'g'li

Alfraganus universiteti

*Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy
munosabatlar yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonning boy madaniy merosi — tarixiy yodgorliklar, arxitektura ansambllari va qadimiylar shaharlarning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri yoritiladi. Madaniy meros obyektlarining turizm sohasidagi o'rni, ular orqali yaratilayotgan iqtisodiy imkoniyatlar, ish o'rirlari, investitsiyalar va infratuzilma rivoji tahlil qilinadi. Ushbu obyektlarni saqlash va ulardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash muhimligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: turizm, madaniy meros, iqtisodiy rivojlanish, tarixiy obidalar, investitsiya, bandlik, O'zbekiston.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan turizm sohasini strategik rivojlanish yo'nalishi sifatida belgilanishi natijasida ushbu tarmoq mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rinni egallay boshladi. Turizmning yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushi ortib borayotgani, bu yo'nalishga berilayotgan e'tibor va amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy samarasidir. Jumladan, 2016-yildan boshlab hukumat tomonidan qabul qilingan davlat dasturlari, vizasiz rejimlarning kengaytirilishi, turli diplomatik aloqalar, zamonaviy infratuzilmaning rivojlanishi va servis xizmatlari sifatining oshirilishi sayyoohlari sonining barqaror o'sishiga zamin yaratmoqda. Xususan, madaniy turizm – O'zbekistonning tarixiy merosi va noyob



arxitektura yodgorliklariga asoslangan holda, mamlakatning xalqaro maydondagi sayyohlik brendini shakllantirishda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. UNESCO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan Samarqand - “Madaniyatlar chorrahasi”, Buxoro - “Muqaddas shahar”, Xiva -“Ichon-qal’a” kabi obidalar ming yillar davomida shakllangan sivilizatsiyalarning guvohi sifatida nafaqat ilmiy va madaniy ahamiyatga ega, balki iqtisodiy foyda manbaiga aylangan.¹ Bu tarixiy shaharlar har yili minglab xorijiy va mahalliy sayyoohlarni o‘ziga tortadi. Sayyohlik oqimi ortgani sari mehmonxona, restoran, transport va xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi ish o‘rnlari yaratilmoqda, kichik va o‘rta biznes subyektlari rivojlanmoqda. Bundan tashqari, mahalliy hunarmandchilik, milliy taomlar, folklor san’ati kabi madaniy jihatlar ham sayyoohlар orasida katta qiziqish uyg‘otmoqda.

ASOSIY QISM

O‘zbekiston - Markaziy Osiyodagi eng boy tarixiy-madaniy merosga ega davlatlardan biri bo‘lib, uning hududida ming yillik sivilizatsiyalar, buyuk ipak yo‘li madaniy makonlari, qadimiy shaharlar va arxitektura yodgorliklari joylashgan. O‘zbekistonning tarixiy shaharlari - Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrисabz va Termiz - asrlar davomida Ipak yo‘li markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Hozirgi kunda bu shaharlarda joylashgan arxitektura yodgorliklari xorijiy sayyoohlар uchun asosiy diqqat markazi hisoblanadi. Masalan:

¹ Rakhimov A. (2020). Historical Tourism in Central Asia, Tashkent University Press.



Samarqand
Registon maydoni
yilda o‘rtacha 500
mingdan ortiq
mehmon qabul
qiladi.

Xivada joylashgan
Ichan-qal'a ichidagi
60 dan ortiq
obidalar yuzlab
mahalliy gidlar,
hunarmandlar,
rassomlar uchun
daromad manbai.

Buxoro Ark qal‘asi,
Labi Hovuz hududi
esa restoranlar,
mehmonxonalar va
sayyohlik
xizmatlarini
rivojlantirishga
sabab bo‘lmoqda.

2023 yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyoohlari soni 6,6 milliondan oshdi, bu esa 2017 yildagi ko‘rsatkichidan 2,5 baravar yuqori.² Turizm xizmatlaridan tushgan daromad esa 2 milliard AQSH dollaridan oshdi. Bu jarayonda madaniy meros obyektlari — xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrисабз va Termiz kabi tarixiy markazlar asosiy turistik oqimni tashkil qilmoqda.

2021–2023 yillarda Samarqand shahrida amalga oshirilgan “Silk Road Samarkand” loyihasi davomida 8 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi va xizmat ko‘rsatish sektorining ulushi 2 baravar oshdi.³ O‘zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosi mamlakat turizm iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir. Turizm orqali yaratilgan ish o‘rinlari, infratuzilmaning rivojlanishi, xorijiy valyuta tushumlari va ijtimoiy faoliik - bularning barchasi madaniy merosning iqtisodiy ahamiyatini oshiradi. Ammo bu salohiyatni to‘liq amalga oshirish uchun tarixiy obyektlarni ehtiyojkorlik bilan saqlash, ularni zamonaviy boshqaruv usullari bilan muvofiqlashtirish zarur. Madaniy merosning iqtisodiy foydasi faqatgina turistik tushumlar bilan cheklanib qolmaydi. Bu obidalar atrofida qadriyatlar iqtisodiyoti shakllanadi - ya’ni madaniy yodgorliklar orqali milliy

² O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). O‘zbekiston Respublikasi turizm statistikalari to‘plami.

³ Silk Road Samarkand rasmiy sayti: www.silkroad-samarkand.com



hunarmandchilik rivojlanadi, mahalliy brendlар yaratiladi, xalqaro grant va investitsiyalar jalb qilinadi. O'zbekistonning tarixiy-madaniy obidalar - bu faqat o'tmish yodgori emas, balki kelajak taraqqiyotining iqtisodiy poydevoridir. Ularni to'g'ri boshqarish, xizmatlar tarmog'i bilan uzviy bog'lash, infratuzilmani rivojlantirish orqali mamlakat turizm iqtisodiyoti yangi bosqichga ko'tarilishi mumkin.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi nafaqat milliy g'urur, balki yuksak iqtisodiy salohiyatga ega resursdir. Xulosa o'rnida shuni ham ta'kidlab o'tishim joizki, kulgusida ushbu jarayonni yanada takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Tarixiy yodgorliklar atrofida sanitariya, transport, axborot nuqtalari, valyuta ayirboshlash va favqulodda yordam xizmatlarini standartlarga moslashtirish. Bu sayyoohlар oqimini barqaror oshirishga xizmat qiladi;
- Har bir tarixiy maskan o'ziga xos an'anaviy festivalga ega bo'lishi sayyoqlik mavsumlarini uzaytiradi va hududiy turizm faolligini kuchaytiradi (masalan, "Xiva Hunarmandlar festivali", "Buxoro Baxshilar kechasi" kabi).
- Turistlar uchun maxsus murojaat markazlari, turizm politsiyasi va xizmat ko'rsatish sifati nazorat tizimi yaratish orqali xorijiy sayyoohlар ishonchini oshirish mumkin.

Madaniy meros obyektlarini zamonaviy iqtisodiy yondashuvlar asosida rivojlantirish O'zbekistonning turizm iqtisodiyotini mustahkamlash, global maydondagi imijini oshirish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rakhimov A. (2020). Historical Tourism in Central Asia, Tashkent University Press.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). O'zbekiston Respublikasi turizm statistikalari to'plami.

Silk Road Samarkand rasmiy sayti: www.silkroad-samarkand.com